

INTERFAOL METODLAR ASOSIDA NASRIY ASARLARNI TAHLIL QILISH

Eshpulatova Saodat Maxmatovna,
*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv
va texnologiyalar universiteti
dotsent v.b., PhD.*
Saodat69eshpulatova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida ta’lim berishda yangi pedagogik texnologiyalarning o’rnini, samaradorligi, turlari haqida so’z boradi. Interfaol usullar yordamida ta’lim berisho ‘quvchi shaxsiga, an’anaviy o’qitish esa – o’quv fani mazmuniga yo’naltirilganligi barchaga ma’lum. Nasriy asarlarni o’rgatishda interfaol usullarning bir necha turi, ularning ta’lim berish jarayonidagi ahamiyati haqida ham ma’lumot berilgan. Shu bilan birga ba’zi bir usullar xususida ham alohida to’xtalib o’tilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol usullar, noan’anaviy o’qitish, bilim, ko’nikma, loyihalash, ta’limga yo’naltirish, samaradorlik.


Annotation. This article will focus on the role, effectiveness and types of new pedagogical technologies in teaching in educational institutions. It is well known that learning through interactive methods is focused on the personality of the student, and traditional learning is focused on the content of the subject. Information is also provided on several types of interactive methods of teaching prose works, their importance in the educational process. At the same time, some methods were also touched upon separately.

Keywords: interactive methods, non-traditional learning, knowledge, skills, design, learning orientation, efficiency.

Yangi pedagogik texnologiyalarning ishlab chiqilishi va uni amalda qo’llash ta’lim sifatini, samaradorligini oshirishda ko’mak beradi. Fan, texnika, jamiyat rivojlanib borayotgan, dolzarb masalalar ko’ndalang bo’lib turgan bir paytda ta’lim muassasalarida bilim berishning ham yangidan yangi pedagogik texnologiyalari ishlab chiqilmoqda va bu o’z ornida o’zining ijobjiy samarasini bermoqda. Interfaol metodlar mohiyatiga yetishda XX asr boshlarida pedagogikadagi islohotlarning boshida turgan L.S. Vigotskiyning «Yaqindagi rivojlanish zonasasi», Piajening «Intellekt rivojlanish nazariyasi», G.Gardnerning «Intellektning xilma-xilligi nazariyasi», B.Blumning “Bilish sohasidagi o’quv maqsadlarning asosiy kategoriyalari taksonomiyasi”, “Idrok xaritasi”, “An’anaviy o’qitish modellari”, Ya.A.Komenskiyning “Pedagogik tamoyillar”, “An’anaviy o’qitishning afzalliklari va chegaralari”, “Interfaol o’qitish modellari” asarlari har jihatdan o’rganishga loyiq. Biz ham bilimlarni tayyor holda berib bo’lmasligi, o’quvchi o’z bilimlarini tizimli ketma-ketlik asosida takomillashtirishi uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratib berish lozimligi, o’qituvchi o’quvchini uni o’rab turgan borliqning muhim muammolarini izlash, tadqiq qilish va yechimini topishga jalb qila olishi, bu borada

interfaol usullarni qo’llash maqsadga muvofiq, degan fikrdamiz. Bizningcha, interfaol o’qitish o’quvchi shaxsiga, an’anaviy o’qitish esa – o’quv fani mazmuniga yo’naltirilgandir. Biroq o’qitishning bu usuli an’anaviy ta’lim muvaffaqiyatlarini inkor etmaydi. Qolaversa, har qanday interfaol o’qitish an’anaviy ta’lim negizida dunyo yuzini ko’radi. Inglizcha (ITML) so’zdan olingan, ta’lim berish va o’qitishning interfaol usullari [Safin D., Musina R.G. 2007.16-17] ma’nosini bildiruvchi interfaol usullar an’anaviy o’qitish tizimiga *norasmiy munozara; materialni erkin bayon qilish; ma’ruzadan maqsadli foydalanish, kichik ma’ruza; seminar mashg’ulotlar; o’quvchining tashabbusi; jamoaviy, kichik guruh, juftlikda va yakka tartibda ishlashga mos topshiriqlar mavjudligi; yozma ishlarni bajarish; taqdimot qilish kabilarni qo’shish bilan ta’limni rang-baranglashtirdi, o’quv maqsadiga erishish darajasini ko’tardi.*

INTERFAOL O’QITISH SHAKLI



Yangilikka o’ch o’qituvchilar «an’anaviy o’qitish usullarini to’xtatish kerakmi?» degan savollar bilan murojaat qilsa, tajribali o’qituvchilar «yo‘q, chunki interfaol o’qitish o‘yindan iborat» deyishadi. Biz har ikkala savolga ham «yo‘q», deb qat’iy javob beramiz. Chunki interfaol usul, yo‘l, taktikadan foydalanish dars sifatini oshirish maqsadida ta’lim berish usullari to’plamini boyitishdan iborat.

Ko‘pchilik interfaol usullardan foydalanishning asosiy sababi uning «qiziqligligi»da deb hisoblaydi. Bu fikr noto‘g‘ri. Chunki ushbu usul, vosita, taktika, metodlardan foydalanish samaradorligi bilan xarakterlanadi. Bunda o‘qituvchi o‘quv maqsadiga erishish uchun vaqt, jihoz, resurs va hokazolar kam sarflanishini talab qiladi. Mabodo, o‘quvchilar aniq dalillarning belgilangan tizimini o‘zlashtirishi kerak, desangiz quyidagi shaklda dars o‘tgan ma’qulroq.


AN’ANAVIY O’QITISH SHAKLI

**mashg‘ulotlar
bir xil qolipda,
bir xillikda
tuzilishi;

maqsadga
o‘rtamiyona
yondashuv;

o‘quvchilarning
sustligi va
mustaqil
emasligi;

o‘quvchilar
o‘rtasida o‘zaro
muloqotning
cheklanganligi,
nutqiy
faoliyatning
sustligi va
hokazo.**



+ o‘qitishning
tizimliligi;
+ o‘quv materiali-
ni berishning tar-
tiblanganligi;
+ izchilligi;
+ ommaviy
o‘qitishda
resurslarning
oqilona
sarflanishi;
+ o‘qituvchi
shaxsining
muntazam
ravishda
emotsional ta’sir
etishi;
+ tashkiliy
puxtalik va
hokazo

**Agar ta’limiy maqsad o‘quvchining amaliy, hayotiy ko‘nikmalarini
rivojlantirish bo‘lsa, unda interfaol metoddan foydalaniladi.**

An’anaviy va interfaol metodlarni *taqqoslash sxemasi*

“RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O’ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O’QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA”

mauzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to’plami

An’anaviy o‘qitish	Interfaol o‘qitish
O‘qituvchi o‘qitish mazmunini tozalovchi «filg‘tr» rolini bajaradi.	O‘qituvchi tayyor bilimlar bermay, o‘quvchilarni mustaqil izlanishga chorlaydi.
O‘quvchilarning tajriba orttirish sohasi, o‘qituvchi bilan o‘zaro ta’siri sust xarakterga egaligi.	O‘rganilayotgan bilim o‘quvchilar tajriba orttiradigan sohaga bevosita bog‘liqligi.
O‘quvchilar mustaqilligi yo‘qligi, undan faqat yodlash talab qilinishi va h.k.	O‘quvchilar faolligi. O‘qituvchi vazifasi – o‘quvchilarning tashabbusiga sharoit yaratib berish.

Dars jarayonini to‘g‘ri boshqarish yaxshi ishlayotgan o‘quvchilarga xalaqit bermaslikdan iboratdir. Insondagi tug‘ma instinct undan hamma yurgan yo‘ldan yurishni, ko‘pchilik qo‘llagan usulni qo‘llashni talab qiladi. Albatta, bu juda yaxshi hol. Negaki, u odamni ortiqcha zo‘riqish, bekorga kuch sarflashdan qutqaradi. Ijodkorlikni talab qiladigan muammolarning yechimi esa odatdagি tasavvurlardan tashqarida bo‘ladi. Murakkab muammoning ijodi yechimini topa olish uchun odam kutilmagan, betakror, original va jur’atlari fikrlarni tashqariga chiqarmay, miyada ushlab qoladigan o‘ziga xos «filtr»ni neytrallashtirishi kerak bo‘ladi. Odam yo tanqididan, yoxud kimlarningdir masxaralashidan, yoki ommadan ajralib turishdan cho‘chib judayam dadil, hech kimnikiga o‘xshamaydigan bo‘lib tuyulgan original yechimlarni ichiga «yutib» yuboradi. Agar ana shu filtr olib tashlansa, har qanday muammoning taxminiy yechimlari miqdori keskin ortgan bo‘lardi. Interfaol usul kiritgan asosiy yangilik *g‘oyaning tug‘ilish jarayonida uni tanqid qilish mumkin emas* degan qarashdan iboratdir.

Adabiyot o‘qituvchisi interfaol usuldagи dars jarayonida o‘quvchilar oldiga hal etilishi kerak bo‘lgan o‘quv muammosini o‘rtaga tashladi deylik. Dastlab qo‘yilgan muammoni yechishga tegishli imkon qadar ko‘p g‘oya to‘plash kerak. Shu o‘rinda usulning eng asosiy qoidasiga amal qilinishi, ya’ni har qanday, hatto, yanglish ekanligi shundoqqina ko‘rinib turgan fikr ham qo‘llab-quvvatlanishi, o‘rtaga tashlangan g‘oyaning nochorligi ko‘rinib tursa-da, u tanqid qilinmasligi, kamsitilmasligi kerak. O‘quvchilarning yetakchisi (moderator) o‘rtaga g‘oya tashlayotgan har bir o‘quvchini rag‘batlantirishi, yaxshi-yomonligidan qat’i nazar ko‘proq fikr bildirilishini qo‘llashi zarur. Shunda o‘quvchilarning hissiyotlari uyg‘onadi, ular ham fikriy, ham emotsional izlanadilar.

Metodist olima M.Mirqosimova ko’rsatib o’tganiday: ”Adabiy tahlil she’r yoki nasriy asarni ifodali o‘qishdan boshlanadi. O‘qish davomida ijodkor yaratgan tafakkur tizimi anglanadi, o‘zlashtiriladi, muhokama qilinadi, kitobxon ko‘z o‘ngida yaratilgan poetik manzarani yaratishda shoir yoki yozuvchi qo’llagan tasviriy vositalarga sirtdan ahamiyat berilmaydi, asosiy e’tibor o‘qish jarayonida mazmunga, obrazning ichki ma’nolariga jalb etiladi. Ammo tahlil jarayonida ana shu ma’nolarni ifoda etishga safarbar qilingan barcha vositalar o‘rganiladi[M.Mirqosimova, 2006,112].

Badiiy asarning sinfda ta’sirchan qilib badiiy o‘qilishi o‘quvchilarni hech qachon loqayd qoldirmasligi, ularning ruhiyatiga kirib borib, ijobiy taassurot hosil qilishi, bu esa asarga qiziqish kuchaytirishi ko‘plab tajribalar bilan dalillangan. Xususan, sinfda badiiy ifoda bilan o‘qilgan asarlar o‘quvchilar e’tiborini o‘ziga tortishdan tashqari, san’atkorlik bilan o‘qiyotgan ustozga ehtirom hissini tarbiyalaydi, ularning har birida asarni xuddi shunday o‘qishga havas uyg‘otadi.

Metodist olima R.Niyozmetova o‘quvchilarga o‘qituvchi beradigan izoh va sharhlar haqida gapirib, o‘quvchidan uning shaxsiy, ko‘pincha tushuntirib bo‘lmaydigan holatlaridan, ba’zida esa “g‘alati” savollaridan kelib chiqish lozimligini uqtiradi[R.X.Niyozmetova, 2007, 14-51] .

Interfaol usulda tashkil etilgan adabiyot darsida o‘quv muammosini yechish yuzasidan o‘rtaga tashlangan g‘oyalalar saralanadi. Lekin bu jarayonda ham jo‘ngina «bo‘ladi-bo‘lmaydi» tarzida emas, balki bildirilgan har bir fikrdan imkon boricha, ratsional mag‘iz topishga, ayni vaqtida muammoni hal qilishda kattaroq samara beradigan g‘oyalarni tanlab olishga e’tibor qilinadi. Interfaol usulidagi asosiy jihat o‘ziga xos, betakror, original fikrlar olish uchun o‘quvchilarning tasavvurlari, ong va ongosti quvvatlarini ochish, ulardagи yashirin imkoniyatlarni ishga solishdan iboratdir. Ta’limda “Nima uchun” sxemasi, “Baliq skeleti”, “Nilufar guli” chizmasi, “Qanday” diagrammalari muammoni aniqlash, tahlil qilish va uni hal etishni rejalashtirishning optimal yo‘llari va vositalari sifatida turkumlanadi.

Tahlil vositasida quyidagi masalalar hal
qilinishi nazarda tutiladi:

Tahlilning maqsad va mazmunini aniqlash

Ishni tashkil qilish

Matnning qanday metodlar asosida o’rganilishi, ta’lim
oluvchilar egallaydigan BKMLar

Istiqlol davri pedagogikasida yosh avlodni ijodkorlikka yo‘naltirish, mustaqil o‘qib-o‘rganish, nazariyani amaliyotga tatbiq etish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etib, bu borada evristik ta’lim metodlari samaradorligi e’tirof etilmoqda. Zamirida ta’limiy mahsulot yaratishga erishish va, asosan, obyektni bilish maqsadi ustuvor kognitiv metodlar samarasini o‘qituvchining o‘quvchi bilan do’stona munosabat o‘rnatishi, darsda qulay pedagogik va ‘sixologik muhit yarata olganida namoyon bo‘ladi. Ta’kidlash mumkinki, em’atiya, obrazli ko‘rish, ramziy ko‘rish, evristik savollar, taqqoslash, evristik kuzatish, taddiqot, tushunchalarni yig‘ish va ilmiy faraz kabi qator metodlar kognitivlik xususiyatiga ega.

Adabiy tahlilni matn ustida ishlashdan ajratish mumkin emas. Tahlil matn asosida uyushtirilsagina ko‘zlangan natijaga erishiladi. Matn ustida ishlashda uni o‘qish, so‘ngraovoz chiqarib, ovoz chiqarmay, jo‘r bo‘lib, rollarga bo‘lib, sharhli, ifodali, adabiy-badiiy o‘qish usulida o‘qib o‘rganiladi. Obrazlar bo‘yicha tahlilda “SWOT – universal tahlil”, “Case-study”, “Muammoli vaziyat” kabi qator innovatsion texnologiyalaridan unumli foydalanish qahramonlarning asar syujetida tutgan o‘rni va badiiy funksiyasini baholash, qahramonlar xarakterining umumiyligi va farqli jihatlarini tavsiflash, hayotiy muammolar yechimi yuzasidan mustaqil qarorlar qabul qilish malakalarini takomillashtirishda kutilgan natijalarni kafolatlashi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi istiqlol zaminimizda badiiy adabiyot yosh barkamol avlodning ma`naviy, axloqiy, intellektual va estetik jihatdan yetuk shaxslar bo‘lib shakllanishiga salmoqli o‘rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan, 2006. –114 b.
2. Niyozmetova R.H. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. – T.: Fan, 2007. – 215 b.
3. Safin D., Musina R.G. Ta’lim berish va o‘qitishning interfaol usullari. 1-modul. Interfaol o‘qitishning nazariy asoslari. – T.: 2007.